

## Adabiyot fanidan terminlar lug'ati

### 9-sinf adabiyot

<i>T/r</i>	<i>So'zlar ro'yxati</i>	<i>So'zlar izohi</i>
1	<b>Shoy</b>	shox
2	<b>Chupronto'y</b>	sunnat to'yi
3	<b>Biy</b>	bek
4	<b>Paygabet</b>	Bo'sag'a, eshikka yaqin joy;
5	<b>Odamni mensimaydi</b>	uni yutib yuborguday bo'ladi ma'nosida
6	<b>Besohib</b>	egasiz
7	<b>Ravza</b>	maqbara
8	<b>Turbat</b>	bu yerda ostona ma'nosida,
9	<b>Boz</b>	yana
10	<b>Inlatgan</b>	inga qamagan
11	<b>Angnib</b>	poylab
12	<b>Mazgil</b>	manzil
13	<b>Majlisxona</b>	bazmxona
14	<b>Birinj</b>	bronza
15	<b>Mina</b>	manavi
16	<b>Juz'ya</b>	g'ayridinlarga solinadigan katta miqdordagi soliq
17	<b>Tabla</b>	ot bog'lanadigan joy, otxona
18	<b>Lo'k</b>	yuk tashiydigan tuya
19	<b>Norcha</b>	yosh erkak tuya
20	<b>Bel</b>	dovon
21	<b>Qaba</b>	tartripsiz, o'zgaruvchan
22	<b>Eliboylar</b>	chorvadorlar
23	<b>Olaylik</b>	bu yerda haqoratlash ma'nosida aytilgan
24	<b>Javlik</b>	hamma, yoppa
25	<b>Jiyib</b>	yig'ib, to'plab
26	<b>Dog'ilib</b>	yig'ilib, to'dalashib
27	<b>Burumi</b>	soch o'rimi
28	<b>Shabgir tortish</b>	tinmaslik, dam olmaslik
29	<b>Shobir</b>	xabar, ovoza, belgi
30	<b>Narmoda</b>	erkak urg'ochiligi noma'lum odam, xunasa, gey
31	<b>Qayqi</b>	Egilgan, qiyshiq
32	<b>Shamiyon qaytarib</b>	gerdayib, hovliqib, vahima qilib
33	<b>Poyim</b>	fahm, ma'no
34	<b>Bog'onog'i</b>	boyagi
35	<b>Zinkiyib</b>	qaqqayib, qayqayib
36	<b>Nimish</b>	nima ish?
37	<b>Qo'riqi</b>	sirtmoq

38	<b>Yo'lli</b>	yo'li ochiq, omadli
39	<b>O'nikimom</b>	o'n ikki imom
40	<b>Chilton</b>	qirq avliyo
41	<b>Kulli eranlar</b>	barcha erkaklar, askarlar. Bu yerda buyuk avliyolar ruhlari ma'nosida
42	<b>Chuyda</b>	bo'yin sirtidagi yo'g'on tomir
43	<b>Suqsur</b>	makiyon o'rdak
44	<b>Tangga taylab</b>	tog'ni egallab
45	<b>Gala</b>	suruv
46	<b>Moya</b>	urg'ochi tuya
47	<b>Bola kunda</b>	bolalikda
48	<b>Quyunchiq</b>	tutqanoq
49	<b>Shibanib</b>	yeng shimarib, shaylanib
50	<b>Anday</b>	juda zo'r
51	<b>Jodirim</b>	jabr ko'rgan
52	<b>Dabgiridan aadashib</b>	aqli shoshib, esini yo'qotib
53	<b>Qutbi zamon</b>	zamon avliyosi
54	<b>Kulaband</b>	yechilmaydigan qilib bog'lash
55	<b>Shung'ut</b>	buzuqi, shum
56	<b>To'sat-to'sat</b>	to'da-to'da, guruh-guruh
57	<b>Banot</b>	baxmal
58	<b>Tomoshamon</b>	tomashabin
59	<b>Dustaman</b>	yuztuban
60	<b>Tushmas</b>	tushunmas
61	<b>Ang</b>	anqov, sodda
62	<b>Pora-pora</b>	parcha-parcha
63	<b>Chirpib</b>	siltab
64	<b>Nukta</b>	So'z, bu yerda ijod asarlari ma'nosida
65	<b>Misraning ma'nosi</b>	bu (forsiy) til bilan nazm(asar) yaratilsa
66	<b>Misra ma'nosi</b>	forslargagina tushunarli edi
67	<b>Fasona</b>	afsona, bu yerda doston ma'nosida qo'llangan
68	<b>Dog'i</b>	shuningdek, yana
69	<b>Mukarrar</b>	takror
70	<b>Shabiston</b>	tungi yotoqxona
71	<b>Tug'di</b>	tug'ildi
72	<b>Yangi oy</b>	istioraviy yo'l bilan Farhodni bildiradi, uning tug'ilishi qorong'u kechada yangi oynning paydo bo'lishiga qiyoslangan
73	<b>Mehri olamoroy</b>	olamni yorituvchi quyosh
74	<b>Vard</b>	atirgul
75	<b>Nigin</b>	uzuk, uzukning ko'zi, muhr
76	<b>Asror</b>	sirlar
77	<b>Ta'viz</b>	tumor, duo yozilgan varaqa

78	<b>Shabafro'z</b>	kechasini yorituvchi
79	<b>Jahonso'z</b>	jahonni kuydiruvchi
80	<b>Rishta</b>	ip
81	<b>Haqqoki qazo</b>	qismat zargari
82	<b>Ashk</b>	ko'z yoshi
83	<b>Dam</b>	nafas
84	<b>Huvaydo</b>	ayon, ravshan
85	<b>Tug'ro</b>	davlat ramzi, (gerb) nishona
86	<b>Malak</b>	farishta
87	<b>Siyovush</b>	Eron podsholaridan bo'lgan Kaykovusning o'g'li
88	<b>Farri shohiy</b>	shohlik nuri
89	<b>Mah to ba mohi</b>	oydan baliqqacha. Bu yerda "osmonda yergacha" degan ma'noda qo'llangan
90	<b>Irshod</b>	to'g'ri yo'l ko'rsatish
91	<b>Chust</b>	mahkam
92	<b>Murassa</b>	qimmatbaho toshlar bog'langan, qimmatbaho toshlar bialn bezatilgan
93	<b>Mahd</b>	bashik
94	<b>To'ngmoq</b>	belamoq, bog'lamoq
95	<b>Rust</b>	mahkam, qattiq
96	<b>Farzona</b>	oqil, dono
97	<b>Huruf</b>	harflar
98	<b>Ma'xaz</b>	biror narsaning olingan joyi, manba
99	<b>Fard</b>	yakka, yolg'iz, ajralgan, alohida
100	<b>Murattab</b>	tartib berilgan, tartiblangan, tuzilgan
101	<b>Lavh</b>	yoriq narsa, taxta, yozuv taxtasi
102	<b>Siyorat</b>	ta'sir, ichiga o'tish, yuqish
103	<b>Tahdid</b>	biror narsaning haqiqatini izlash, tekshirib ko'rish, haqiqat qilish
104	<b>Murur</b>	o'tish, yurish
105	<b>Ulum</b>	ilmlar
106	<b>Avroq</b>	varaqlar
107	<b>Siloh</b>	qurol-yarog'
108	<b>Beandoza</b>	cheksiz, chegarasiz
109	<b>Abjad</b>	arab alifbosining maxsus tartibda tuzilgan sirasi bo'lib, bunda har bir harf ma'lum son qiymatiga ega bo'ladi
110	<b>Dast</b>	qo'l
111	<b>Padidor</b>	paydo bo'lgan, ko'ringan
112	<b>So'zlig' so'z</b>	"yoniq so'z" ham "so'zli yonish" ma'nosida tushunish mumkin, chunki o'zbekcha "so'z"

		kalima ma'nosini bersa, tojikcha "so'z" "kuyish" ma'nosida keladi
113	<b>Otashholud</b>	yoniq, dardli, otashin
114	<b>Mukarrar</b>	takror
115	<b>Tafahhus aylamak</b>	tekshirmoq, surishtirmoq, teran o'rganmoq
116	<b>Zamir</b>	ko'ngil
117	<b>Xunbor</b>	qon yig'lovchi
118	<b>Madxal</b>	kirish
118	<b>Bud</b>	borliq, mavjudlik. Bu yerda nimaligini ma'nosida kelgan
119	<b>Tor-u pud – o'rish – arqoq.</b>	bu yerda sirr-u sinoatini degan ma'noda kelgan
120	<b>Sipehri ismat</b>	poklik osmoni
121	<b>Zahra</b>	had, jur'at
122	<b>Misraning mazmuni</b>	Bir necha sarvdek tik qomatli, gul yuzli qizlardan boshqa
123	<b>Tul</b>	uzun, cho'zilgan
124	<b>Holi</b>	hozir
125	<b>Hayvon</b>	tiriklik, hayot
126	<b>"Ayn ul-hayot"</b>	hayot bulog'i. hayot suvi
127	<b>Charxfarso</b>	ko'kka ulangan, juda yuksak
128	<b>Yig'och</b>	taxminan 10 km
129	<b>Taabliq</b>	qiyinchilik, mashaqqat
130	<b>Qam</b>	30 yilni bildiradigan yil hisobi. Ba'zan "asr" ma'nosini ham bildiradi
131	<b>Yong'ay</b>	qaytgay (ya'ni qaytsin)
132	<b>Anfos</b>	nafaslar
133	<b>Mahro</b>	oy yuzli
134	<b>Na'layn</b>	bir juft kovush
135	<b>Nazhat</b>	ko'ngil ochish, huzur qilish
136	<b>Mustami'bo'lmoq</b>	quloq solmoq, eshitmoq
137	<b>Didayi giryon</b>	yig'loqi ko'z, yoshlangan ko'z
138	<b>Nang</b>	or, uyat, nomus
139	<b>Hamsang</b>	og'irlikda barovar
140	<b>Nigunluq</b>	egilishlik. egiklik
141	<b>Sung'ur</b>	lochin, shunqor (qush)
142	<b>G'azanfar</b>	sher, arslon
143	<b>Uy</b>	sigir
144	<b>Sipahlar</b>	askar, qo'shin
145	<b>Majnuni gumrah</b>	yo'lini yo'qotgan jinni
146	<b>Pesha</b>	kasb, hunar
147	<b>Bu ishdan o'lmas</b>	Bu ish bilan kasb-kor qilib, tirikchilik

	<b>kasb ro'zi!</b>	o'tkazib bo'lmaydi-ku!
148	<b>Joh ahli</b>	mansab ahli, podsholar
149	<b>“Ruh emas erdi tang'a payvast”</b>	bu misrada Farhod ishqining unda tugilmasidan burun, ya'ni ruh jonga bog'lanmagan paytdayoq paydo bo'lganini aytyapti
150	<b>Inkor qilmoq</b>	qaytmoq
151	<b>Furqat</b>	firoq, ayriliq, judolik, yordan yiroqlik
152	<b>Baloshor</b>	balo keltiruvchi
153	<b>“Til g'ayratidin tutmon otini!”</b>	tildan rashk qilib, (yorimning) otini aytmayman
154	<b>No'shi lab</b>	lab shirinligi
155	<b>“Ul noshidin el qismidur zahr”</b>	u shirinlikdan elga faqat zahargina tegadi
156	<b>La'l</b>	qip-qizil tosh
157	<b>Bebok</b>	beparvo
158	<b>Bud</b>	borlik, mavjudlik
159	<b>Kinakash</b>	kek saqlovchi, dushmanlik qiluvchi, o'ch oluvchi
160	<b>Shirkatandesh</b>	sheriklik qiluvchi, sheriklikni fikr qiluvchi
161	<b>Kishvar</b>	mamlakat, viloyat, yurt
162	<b>Multamas</b>	iltimos
163	<b>Rud</b>	ariq, soy
164	<b>Katora</b>	o'tkir qilich; xanjar
165	<b>Bot</b>	tez
166	<b>Burna</b>	burun, ilgari
167	<b>Yolin</b>	yolqin, alanga
168	<b>Momug'</b>	chigitsiz paxta, chigiti olingan paxta
169	<b>Hirmon</b>	mahrumlik, bebahralik
170	<b>Bovar qilmoq</b>	ishonmoq
171	<b>Yovar</b>	yordamchi, madadkor
172	<b>Bemadoro</b>	murosasiz, kelishmasdan, tortinmay
173	<b>Sirisht</b>	yaratilish, tabiat, xulq
174	<b>Sarnavisht</b>	taqdir, peshonaga yozilgan
175	<b>Sarko'b</b>	bosh yanchuvchi. uruvchi
176	<b>Burqa</b>	yuzga tutiladigan parda, niqob
177	<b>Hijob</b>	parda
178	<b>Mahjur</b>	hajrda qolgan, ayriliqda qolgan
179	<b>G'izo</b>	ovqat, oziq, yegulik
180	<b>Atfol</b>	bolalar
181	<b>Laxti xora</b>	qattiq tosh bo'lagi
182	<b>Otashpora</b>	olov parchasi

183	<b>Xusron</b>	zarar, ziyon
184	<b>Ar</b>	“agar” so’zining qisqartirilgan shakli
185	<b>Inoq quli</b>	hukmdor qattiq ishongan saroy mulozimi
186	<b>Harna</b>	har qanday
187	<b>Bosh urdilar</b>	bosh egdilar, ya’ni rozi bo’ldilar
188	<b>Tonglosi</b>	ertasi
189	<b>Pashsha</b>	bu yerda chivin ma’nosida
190	<b>Nezohim</b>	zahmat yetkazuvchi
191	<b>Dodxoh</b>	azr tinglaguvchi
192	<b>Muddai – yu muddao alayh</b>	Da’vo qiluvchi va da’vo qilinuvchi(aybdor)
193	<b>Masnad</b>	taxt
194	<b>Mustafid</b>	bahramand
195	<b>Tavfiq</b>	ko’mak, yordam, bahramandlik
196	<b>Bog’i jinon</b>	jannat bog’i
197	<b>Avsof</b>	vasflar, ta’riflar
198	<b>Suluk</b>	yo’l
199	<b>Kishti</b>	kema
200	<b>Taknim</b>	ikrom
201	<b>Mutavajjih bo’lmoq</b>	yuzlanmoq
202	<b>Farxundafol</b>	baxtiyor
203	<b>Dilpazir</b>	yoqimli, go’zal
204	<b>Dilrabo’yi noguzir</b>	oldidan ketib bo’lmaydigan
205	<b>Dastur</b>	odati
206	<b>Ehtimom</b>	diqqat qilish
207	<b>Muxtari’ot</b>	topish, kashf (ixtiro) qilish
208	<b>Xazoyin va dafoyin</b>	xazina va ko’milgan boyliklar
209	<b>Daf’a -daf’a</b>	birin-ketin, qayta-qayta
210	<b>poya</b>	qadr, daraja
211	<b>Nishot</b>	shodlik
212	<b>Voya</b>	1) muqaddima; 2) bahra
213	<b>Tifi</b>	go’dak, chaqaloq
214	<b>Zol</b>	kampir
215	<b>G’ino</b>	boylik
216	<b>Peroya</b>	ziynat, bezak
217	<b>Yumurta</b>	tuxum
218	<b>Xoya</b>	tuxum
219	<b>Diram</b>	tanga (pul)
220	<b>Inbisot anduz</b>	quvonch tarqatuvchi
221	<b>Partavfikan</b>	nur, shu’la taratuvchi
222	<b>Jahonafruz</b>	jahonni yorituvchi
223	<b>Shikorandoz</b>	ov qiluvchi
224	<b>Dastomuz</b>	qo’lga o’rgatilgan
225	<b>Uqob</b>	burgut

226	<b>Tuz</b>	1)to'g'ri, rost 2) dala
227	<b>Gardun</b>	falak, taqdir
228	<b>Besutun</b>	afsonaviy tog' nomi
229	<b>Bod</b>	shamol
230	<b>Yuksar</b>	bir boshda
231	<b>Burudat</b>	sovuqlik
232	<b>Afvoji</b>	to'dalar
233	<b>Qoqim –u sinjob – u kishdin</b>	silovsin, olako'zanak va qunduz terisidan po'stin
234	<b>Abri nayson</b>	ko'klam buluti
235	<b>Nastaran</b>	gul turi
236	<b>Yosuman(jasmin)</b>	gul turi
237	<b>Biyobon</b>	dasht, cho'l
238	<b>Giribon</b>	yoqa
238	<b>Savsan</b>	gulsafsar, qog'agul
240	<b>G'oz</b>	qizil rangli elik
241	<b>Tob</b>	nur, jilo
242	<b>Arg'uvoniy</b>	qizil
243	<b>Zebnok</b>	yasangan
244	<b>Banogo'sh</b>	quloq teshigi
245	<b>Sha'ng</b>	o'ynoqi
246	<b>Xadang</b>	oq
247	<b>Jafojo'</b>	jafo qiluvchi
248	<b>Farang</b>	yevropalik, bu yerda g'ayri din nazarda tutilgan
249	<b>Istig'no</b>	noz
250	<b>Chandiki</b>	shunchalar
251	<b>Filmasal</b>	masalan
252	<b>Bo'tayi Haq</b>	Haqning sovg'asi
253	<b>Jo</b>	joy
254	<b>Kamzarofat</b>	bu yerda nopok ma'nosida
255	<b>A'do</b>	yovlar
256	<b>Juz</b>	bo'lak, qism; oz, mayda
257	<b>Fard</b>	bitta, biror; yakka, yolg'iz;
258	<b>Sayd</b>	ov
259	<b>Sayyod</b>	ovchi
260	<b>Dom</b>	tuzoq
261	<b>Nigun</b>	egilgan, bukilgan
262	<b>Xirom</b>	yurishi
263	<b>Bedod</b>	zulum
264	<b>Uzlat</b>	yolg'izlik
265	<b>Figor</b>	yarali
266	<b>Mas'hur</b>	joduli
267	<b>Tasxir</b>	zabt etish, qo'lga olish

268	<b>Iksir</b>	jannatdagi bir buloq
269	<b>Horut va Morut</b>	rivoyatlarga ko'ra ko'kdan ingan farishtalar bo'lib, gunohlari uchun Bobil qudug'iga tashlanganlar
270	<b>Lam'a</b>	porlagan nur
271	<b>Juvon-u pir</b>	yosh-u qari
272	<b>Sahv</b>	xato
273	<b>Og'och</b>	daraxt
274	<b>Oxiratda ichmaydi</b>	jannatga kirmaydi, jannatdagi nasibasini ichmaydi ma'nosida
275	<b>Inga chaqtirish</b>	ya'ni zaharli hashoratlarga(yoki ilonga) chaqtirishdir. Bu o'rinda to'g'ri ma'no ham, majoziy ma'no ham bor, binobarin aqlli odam bir xatoni ikki bor takrorlamaydi
276	<b>Chirkin</b>	uyatsiz
277	<b>Infoq qiluvchi</b>	o'z yaqinlari yoki boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirish uchun yordam beruvchi, nafaqa qiluvchilar
278	<b>Burong'or</b>	qo'shinnig o'ng tomoni
279	<b>Jurong'or</b>	qo'shinning so'l tomoni
280	<b>G'ol</b>	qo'shinning o'rta qismi
281	<b>E'timodli</b>	ishonchli
282	<b>Dorissaltanat</b>	poytaxt, boshkent
283	<b>Hakimi hoziq</b>	mohir, usta tabib
284	<b>Kordon</b>	ish biladigan
285	<b>Sohibi tadbir</b>	tadbir egasi, tadbirli
286	<b>Dorilxalofat</b>	poytaxt
287	<b>Barq</b>	chaqmoq, yashin
288	<b>Xigoh</b>	chodir
289	<b>Tarabxona</b>	bazm qilinadigan joy
290	<b>Gushtgirlik</b>	kurash
291	<b>Munoqasha</b>	janjal, tortishuv
292	<b>Chize</b>	jinday, ozgina
293	<b>Hirovul</b>	qo'shinning old tomoni
294	<b>Qalb</b>	qo'shin markazi
295	<b>Arroda</b>	tosh otadigan qurol, manjaniq
296	<b>Mubohara qilmoq</b>	fatvo bermoq, ruxsat etmoq
297	<b>Murofaa</b>	bahs-munozara
298	<b>Munaqqash</b>	naqshli
299	<b>Muqarrablar</b>	yaqinlar
300	<b>Rabbiul avval</b>	1450- yilning may oyiga to'g'ri keladi
301	<b>Ko'shish</b>	tirilish, urinish, harakat qilish
302	<b>Rafogat</b>	o'rtoqlar, jo'ralar



303	<b>Kegay</b>	g'ildirakning qismi
304	<b>Safolat</b>	yomonliklar, yovuzliklar
305	<b>Tulub</b>	o'lgan bo'taloqning somon tiqilgan jasadi
306		
307		

*Ona tili juda oson*